



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 21-fevral, shanba,
16 (24.196)-son

O'zbek xalq
maqoli

El bor
bo'lsa, er
xor bo'lmas

Muammolar quyidan boshlab hal qilinadi

Prezidentimizning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” doirasida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari hamda “O'zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturi to'g'risida”gi farmoni shunday xulosa qilishga asos bo'ladi.

Avvalo, “O'zbekiston — 2030” strategiyasiga to'xtalaylik. Mazkur strategiya mamlakatni 2030-yilgacha barqaror va yuqori daromadli davlatga aylantirishga qaratilgan uzoq muddatli taraqqiyot dasturi. U iqtisodiy o'sishni ta'minlash, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini yaxshilash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash kabi ustuvor yo'nalishlarni qamrab oladi.

2026-yilgi Davlat dasturi aynan shu strategiyaning amaliy bosqichi hisoblanadi. Ya'ni, strategiya umumiy maqsadlarni ifodalasa, 2026-yil dasturi ushbu maqsadlarni amalga oshirishning aniq mexanizmini belgilab beradi.

Tabiiy savol tug'iladi, ushbu dasturning asosiy g'oyasi nima?

Mahalla — bu faqatgina hududiy birlik emas. U tarbiya o'chog'i, aholi muammolari hal etiladigan joy, ijtimoiy adolat ta'minlanadigan tizim, fuqarolik jamiyatining eng quyi va eng muhim bo'g'ini.

Yilni ushbu tuzilmaga bag'ishlash orqali davlat siyosatining markaziga inson, oila va jamoa manfaatlari qo'yilmoqda.

Dasturda 337 ta aniq chora-tadbir belgilangan. Bu chora-tadbirlar ijtimoiy, iqtisodiy, infratuzilma va boshqaruv sohalarini qamrab oladi. Shuningdek, **59 ta normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilishi rejalashtirilgan.**

Dasturni shartli tarzda inson manfaatlari ustuvorligi, mahallaning iqtisodiy mustaqilligini oshirish, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlarni ta'minlash hamda davlat va jamiyat hamkorligini kuchaytirish kabi asosiy tamoyillarga ajratish mumkin.

Shu o'rinda qayd qilish lozim, mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun **8,5 trillion so'm mablag' ajratilishi belgilangan.** Bu mablag' yo'llar, suv tarmoqlari, elektr ta'minoti, ta'lim va tibbiyot muassasalarini yaxshilashga yo'naltiriladi.

Bu ishlarning ahamiyati, turmushimizga ta'siri haqida to'xtalish, ortiqcha bizningcha.

Shuningdek, **dasturda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun 140 trillion so'm resurs ajratilishi rejalashtirilgan.** Bu esa iqtisodiyotni quyidan boshlab mustahkamlash deganidir.

Tadbirkorlik infratuzilmasi uchun qo'shimcha 10 trillion so'm ajratilishi esa mahallalar-

da ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Eng muhim yangiliklardan biri — mahalliy budjetlarni kuchaytirish mexanizmi. **Qo'shilgan qiymat solig'ining 20 foizi tuman budjetida qoldirilishi mahallalarning moliyaviy imkoniyatlarini oshiradi.**

Bu — mahallaning o'z muammosini o'zi hal qilish imkoniyati paydo bo'lmoqda, degani.

Dastur nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Zero, dastur doirasida yoshlar uchun yangi ish o'rinlari yaratiladi, ayollar tadbirkorligi qo'llab-quvvatlanadi, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish choralari ko'riladi, mahallalarda huquqbuzarliklarning oldini olish kuchaytiriladi.

O'rni kelganda aytib o'tish shart, bu yerda gap faqat ish o'rinlari ochish haqida ketmayapti. Endi ularning mehnat bozoridagi real talabga mosligi, barqarorligi va inson salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilishiga e'tibor qaratiladi.

Kasblarni rivojlantirish, sanoat zonalari huzurida kasbiy qayta tayyorlash markazlarini tashkil etish, yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish — bularning barchasi inson kapitaliga qaratilgan islohotlardir. Davlat siyosatida mehnat bozorini faqat ish o'rinlari soni bilan emas, balki ularning sifati, barqarorligi va kelajakka yo'naltirilgani bilan baholash tamoyili mustahkamlanmoqda.

Darvoqe, joriy yil dasturi aniq raqam va ko'rsatkichlarga asoslangani (337 ta chora-tadbir va aniq moliyaviy ko'rsatkichlar belgilangan) va mahallaning moliyaviy mustaqilligi kuchaytirilganidan tashqari keng jamoatchilik ishtirokida ishlab chiqilgani bilan avvalgilardan farq qiladi.

Tahillarga ko'ra, **5 million-dan ortiq fuqaro muhokamada qatnashgan, 22 mingdan ziyod taklif kelib tushgan.**

Natijaga yo'naltirilgan boshqaruv tizimi joriy etilayotgani dasturining yana bir ahamiyatli jihatidir. Xulosa qilib aytganda, **“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” davlat dasturi — bu shunchaki nom emas. Bu — davlat siyosatining insonga yaqinlashishi, muammolarni quyidan boshlab hal qilishni o'tish, mahallani kuchli ijtimoiy-iqtisodiy institutga aylantirish demakdir.**

Kattaqo'rg'on tumanida Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Narbayaeva rahbarligida Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining sayyor majlisi o'tkazildi.

Unda Milliy va hududiy kengashlar a'zolari, viloyat hokimi, xalq deputatlari viloyat hamda tuman, shahar Kengashlari deputatlari, vazirlik va idoralar rahbarlari, Yoshlar parlamenti a'zolari hamda jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Yig'ilishda viloyatda korruptsiyaga qarshi kurashish, jinoyatchilikning oldini olish va kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar atroflicha muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, hududda iqtisodiy faollik, qurilish, tadbirkorlik va xizmatlar sohasi jadal rivojlanib borayotgani bilan birga, ushbu jarayonlarda korruptsiya xavfi omillari barvaqt aniqlash hamda bartaraf etish dolzarb vazifa hisoblanadi. So'zga chiqqanlar korruptsiyaga qarshi kurashishda tizimli, ochiq va raqamlashtirilgan boshqaruv mexanizmlarini keng joriy etish muhimligiga e'tibor qaratdi.

Xususan, **Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori Akmal Burxonovning** viloyatda o'tkazgan o'rganishlari yakunlari haqida axborot berib, bank, qurilish, kadastr, sog'liqni saqlash, ta'lim, tadbirkorlik, bandlik, savdo, energetika sohalaridagi korruptsiya holatlarga alohida to'xtalib o'tdi.

Qayd qilinishicha, viloyatda



Korruptsiyaga qarshi kurashish holati muhokama qilindi

10 ga yaqin mas'ul rahbarlarga nisbatan qat'iy chora ko'riladi

davlat xaridlarini amalga oshirishda qonunbuzarliklar saqlanib qolmoqda. Agentlik tomonidan 2025-yilda 3,4 milliard so'mlik 9 ta davlat xaridi natijasini bekor qilish bo'yicha davlat buyurtmachilariga taqdimnomalar kiritilgan.

Viloyat bo'yicha mahalliy hokimliklarning 248 ta qaror va farmoyishi “yashirilgan” (XDFU) grifi asosida qabul qilingan. Bu hujjatlarning 49 tasi asossiz yashirilgan deb topildi.

Viloyatda davlat budjeti hisobidan amalga oshirilgan xorijiy xizmat safarlariga ayrim mansabdorlar o'z yaqin qarindoshlarini yuborgani haqida OAV va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan xabarlar Agentlik o'rganishlarida tasdiqlanib, aybdorlarning harakatlariga huquqiy baho berish va tegishli choralar ko'rish ishlari olib borilmoqda.

O'rganishlarda viloyatda 100 ga yaqin boshqaruv xodimlar-

ining tadbirkorlik subyektlarida ta'sischi va rahbarlik asosida faoliyati saqlanib qolayotganligi aniqlangan. Vaholanki, o'tgan yili viloyatning 30 nafar davlat xizmatchisi ayni shu masalada ma'muriy javobgarlikka tortilgan.

Tizimli kamchiliklarga yo'l qo'yib kelayotgan 10 ga yaqin mas'ul rahbarlarga nisbatan qat'iy chora ko'rish bo'yicha Milliy kengashga taklif kiritilgan.

Yig'ilishda kriminogen vaziyat tahliliga ko'ra, viloyatda firibgarlik, o'g'rilik va kiberjinoyatlar, ayniqsa, yoshlar o'rnatidagi huquqbuzarliklar saqlanib qolayotgani tanqid qilindi. Shuning uchun profilaktika inspektorlari faoliyatini kuchaytirish, mahallalarda manzilli ishlarni tashkil qilish, bandlikni ta'minlash hamda raqamli xavfsizlik bo'yicha targ'ibotni kengaytirish zarurligi ta'kidlandi.

O'rganishlar natijalari ko'rsatga-

nidek, so'nggi davrda viloyatda korruptsiyaviy jinoyatlar asosan energetika, qurilish, bandlik, sog'liqni saqlash hamda bank sohalarida uchramoqda. Xususan, energetika tizimida noqonuniy ulanishlar, hisob-kitoblarda inson omilining yuqoriligi va nazorat jarayonlarining yetarli darajada raqamlashtirilmagan mavjud muammolar sifatida ko'rsatib o'tildi.

Muhokama yakunida sohalar kesimida aniq choralar, ularni amalga oshirish mexanizmlari hamda ijro muddatlari belgilangan qaror qabul qilindi. Mutasaddilarning zimmasiga energetika va qurilish yo'nalishlarida jarayonlarni to'liq raqamlashtirish, davlat xizmatlarida inson omilini qisqartirish, komplaens-nazorat tizimini kuchaytirish, kreditlash tizimida shaffof va avtomatlashtirilgan mexanizmlarni joriy etish bo'yicha qator vazifalar yuklatildi.

O'z muxbirimiz.

Ma'rifiy sohada olib borilayotgan ishlar eng avvalo jamiyatdagi munosabatlarda ko'zga tashlanadi. Negaki, madaniyatli jamiyat o'z qadri, o'zgarlar qadri va umuman, millat nufuzi uchun fidoyi bo'ladi, an'analarni hurmat qiladi, belgilangan tartiblarni buzmaslikka intiladi.

Ming afsuski, biz bugungi kunda jamiyatimizda juda ko'p hollarda ana shu tartiblarga rioya etmaydiganlarni ko'proq uchrataymiz. Telefon bahonasida televizor ko'rish, radio eshitish, kitob o'qishga e'tibor susaydi. To'y-ma'rakalar manmanlik, boylikni namoyish qilish va milliy mafkuramizga mos tushmaydigan harakatlar manbaiga, tijoratga aylandi. Idora va tashkilotlar ishchi xodimlari o'z jamoasida madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazishni qog'oz to'ldirib qo'yish, deb tushunyapti.

Shuning uchun ham ziyolilar ishtirok etgan viloyat Ma'naviyat va ma'rifat kengashi anjumani-da ana shu holatlarga jiddiy baho berildi. Viloyat hokimi, mazkur kengash raisi **A.Boboyev** ma'naviyat haqida fikr yuritarkan, eng avvalo, har bir jamoa rahbari ma'naviyatli bo'lishi shart ekanligini ta'kidladi. Chunki ibrat va ilm hamma vaqt ham xalqning shuuriga tez singgan.

Biz, qo'l ostimizdagilar va mahalladoshlar bilan chin yurakdan suhbatlashishni o'rganishimiz kerak, el o'rnatida obro' topgan mutaxassislar, olimlarning xonadonlariga borib turish ziyo tarqatish bilan baravar, — **dedi viloyat hokimi.** — Biz ishda, o'qishda, uyda ham hech kimning zerikib qolishiga, bo'sh o'tirishiga yo'l qo'ymasligimiz zarur. Ma'naviy-madaniy tadbirlarning maqsadi, ana shu bo'shliqni to'ldirish va shuning barobarida, bu tadbirlardan ko'pchilikning saboq olishiga erishishdir.

Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi

Ma'rifiy targ'ibot jonli bo'lsin

Viloyat Ma'naviyat va ma'rifat kengashining navbatdagi yig'ilishidan keyingi mulohazalar

rahbari **X.Ko'bayev** joylarda o'tkazilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'z samarasini berayotganini qayd etdi. Jumladan, “qizil” va “sariq” toifadagi mahallalarda “Jaholatga qarshi ma'rifat” shiori ostida kitobxonlik hamda ko'ngilochar davralar o'tkazildi. “Ma'rifat karvoni”, “Bir vatan, bir el, bir bayroq” es-tafetalarida qariyalar, yoshlar va ayollar ishtirok etdi. Bundan tashqari, hududlarni obodonlashtirish, oilaviy ajrimlarga barham berish mavzularida jonli suhbatlar uyushtirildi. Viloyat kengashi tomonidan mahalladagi yettilik hamda ma'rifat targ'ibotchilari uchun “Ma'naviyat qo'llanmasi” tayyorlandi.

Viloyat Ma'naviyat va ma'rifat kengashi shu yilning boshida 84 ta korxona va tashkilot bilan ma'rifiy ishlardagi hamkorlik yuzasidan “Yo'l xarita”larini imzoladi, targ'ibotchilar ro'yxatlari shakllantirildi. Va bu ish allaqachon boshlab yuborildi.

Ming afsuski, yig'ilishda juda ko'plab banklar tomonidan ana shunday hamkorlikka moyillik bildirilmaganligi tanqid qilindi. Past Darg'om va Payariq tumanlarida o'tgan yilning sentabr oyidan buyon ma'naviyat va ma'rifat bo'limi lavozimi vakant bo'lib turibdi. O'rganishlar Kattaqo'rg'on va Jomboy tumanlaridagi ayrim tashkilotlarda ma'rifiy tadbirlar, ma'naviyat soatlari nomigagina o'tkazilayotganligini ko'rsatdi. Ayrim tuman va shaharlar hokimliklari hududiy ma'naviyat va ma'rifat bo'limlarining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shart-sharoit yaratib bermagan. Shu sababli ham anjumanda fikr bildiruvchilar aniq takliflarga to'xtalishdi.

— Azaldan xalqimiz oiladagi ibratdan foydalangan, — **dedi Samarqand davlat universiteti rektori, Oliy Majlis Senati a'zosi Rustam Xolmurodov.** — Chunki inson

ana shu maskanda shakllanadi, odobni ham, bilimga ishtiyoqni ham bola oilada o'zlashtiradi. Ming afsuski, biz inqilobiy o'zgarishlar sohasida, globalashuv jarayonida milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyani susaytirib qo'ydik. Demoqchimanki, bugunning ma'naviyat targ'ibotchisi o'z faoliyatini aynan mahallada, oilada olib borishi kerak. Jamoalarda o'tkazilayotgan ma'naviy soatlarda ham kitob o'qishni targ'ib qilish barobarida har bir ishchi-xodimning oiladagi ma'rifatini so'rab turish zarur.

O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi boshlig'i I.Jabborov ham ayni davrda mahallalarda milliy qadriyatlarini mustahkamlash uchun olib borilajak ishlarni aniq sanab o'tdi. Jumladan, to'y-ma'rakalarda Oliy Majlis qabul qilgan qaror ijrosini ta'minlash choralari ko'rish, mahallalarda ixcham ma'rifiy suhbatlar uyushtirish, mahalla kutubxonalarida tadbirlar muntazamligiga erishish zarurligiga e'tibor qaratdi. To'y-ma'rakalarni qisqartirish, to'ychi va to'yxona egasi mas'uliyatini kuchaytirish yuzasidan o'rganishlar olib borilayotgani ta'kidlandi.

“Zarafshon” va “Samarqandskiy vestnik” gazetalar bosh muharriri F.Toshev kengash faoliyatini yanada takomillashtirish, targ'ibotchilar tanlovi va ularni rag'batlantirishni yo'lga qo'yish, joylardagi klublar, saroylar va ilm maskanlari zallaridan oqilona foydalanish zarurligini aytdi.

Anjumam qatnashchilarilari ma'naviyat va ma'rifat tadbirlarida ko'zbo'yamachilikka yo'l qo'yish mutlaqo mumkin emasligini alohida ta'kidladilar.

Yig'ilish so'ngida kengashning 2026-yilga mo'ljallangan ish-rejasi va tashkilot hamda korxonalar bilan tuzilgan “Yo'l xaritalari” ma'qullandi.

Husan ELTOYEV.



Samarqand va Dubrovnik shaharlari
birodarlashadi



Viloyatdagi 21 ta dehqon
bozorida 32 turdagi arzonlashtirilgan
mahsulotlar yarmarkasi tashkil etildi



Nuroboddagi Xayron shayx
qabristonidan sirli quduq
topildi



Telefondan ko'p va noto'g'ri
foydalanish ko'rish qobiliyatini
susaytiradi

Kengash xalqning haqiqiy “OVOZI” bo'ladi

Mahalliy kengashlar xalq va davlat o'rtasidagi ko'priki, deyiladi. Bu tuzilma aholiga eng yaqin bo'lg'in va unga saylangan deputatlar odamlar orasida bo'lib, ularning tashvishlari, hudud muammolarini nafaqat chuqur biladigan, balki hal qilish bo'yicha takliflarga ham ega bo'lgan xalq vakillari hisoblanadi.

Shu bois mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini takomillashtirish, ularning hududiy boshqaruvdagi rolini yanada oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, 2025-yildan viloyat hokimlari va xalq deputatlar kengashlari raislari lavozimlarining ajratilgani davlat hokimiyati tarmoqlari o'rtasida muvozanatni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Joriy yildan boshlab ushbu tizim tuman va shaharlarda ham to'liq joriy etildi. Bu mahalliy kengashlarning institutsional mustaqilligini yanada mustahkamladi.

Misol uchun, sessiyalar shu paytgacha hokim tomonidan chaqirilardi. Endi kengash raisi tomonidan zaruratga qarab, ammo har chorakda kamida bir marta farmoyish asosida chaqiriladi. Hokimlar sessiya chaqirish bo'yicha kengash raisiga faqat rasmiy taklif kiritishi mumkin.

Sessiyalar ikkiga bo'linadi - navbatdan tashqari sessiyalar shoshilinch va kechiktirib bo'lmaydigan masalalar yuzaga kelganda, navbatdagi sessiya esa kengash ish rejasiga muvofiq chaqiriladi.

Yaqinda Oliy Majlis Senatida tashkil qilingan o'quv seminarida yangi saylangan kengash raisi maqomi, bu borada 80 dan ortiq qonunlarga o'zgartirish kiritilgani, hokimiyatlar bo'linishi tamoyilini mahalliy darajada ta'minlashda asosiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlarni kengashga o'tkazilayotgan vakolatlar haqida batafsil ma'lumot berildi.

Jumladan, masalalarni sessiya muhokamasiga olib chiqish, qarorlar qabul qilishni ketma-ketlikda tashkil etish, kengash reglamentiga amal qilishning ahamiyati, sessiyaga tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazish, qarorlar qabul qilish, intizom va etika, so'zga chiqish madaniyati, reglamentni buzganlarga chora ko'rish, qabul qilingan qarorlar shubha ostiga olinganda prokuratura organlari tomonidan



dan ta'sir choralari ko'rilishi, bunda sud orqali qarorlarni bekor qilish ehtimoli haqida fikr yuritildi.

Sessiya kengashning qarorlar qabul qilish maydoni ekanligi, mahalliy budget va uning ijrosi, hududni rivojlantirish dasturlari, nazorat tahlil tadbirlari natijalari, mahalliy ahamiyatga ega masalalarni ko'rishda haqqoniylik va qonuniylikka amal qilish zarurati haqida tushuntirishlar berildi.

Seminarda aytib o'tildiki, reglament raisning asosiy quroli. Qarorlar aniq ovozlarda sanab qabul qilinishi va qaysi masala ovozga qo'yilmagan bo'lsa, qaror qabul qilinmasligi lozim. Reglamentga rioyati yo'q va sun'iy tezlashtirilgan qarorlar sessiya va kengash nufuzi tushishiga olib keladi.

Sessiyaga ijro hokimiyati vakillari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlari, ekspert guruhi, yoshlar departamenti vakillari, OAV xodimlari ham chaqirilishi kerak. Mansabdor shaxs o'rniga bo'lim mudiri, yetakchi mutaxassis kelishi behurmatlik, deb belgilanishi kerak. Sessiyalar ijtimoiy tarmoqlarda onlayn yoritib borilishi zarur.

Qayd qilinishicha, xalq deputatlari mahalliy kengash raisi o'rinbosari institutini joriy etish masalasi ko'rib chiqilmoqda. Bunda kengash raisi o'rinbosariga bir vaqtning o'zida kengash kotibichig'ini mudiri vazifasini bajarish hamda kengash kotibiyati xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod qilish vakolatlarini berish nazarda

tutilmoqda.

Bundan tashqari, mahalliy kengashlar sessiyalari oralig'ida tezkor masalalarni hal etish maqsadida kengash rayosati institutini joriy etish va uning ish faoliyati tartibini belgilash kutilmoqda.

Shuningdek, mahalliy kengashlarda deputatlar va jamoatchilik vakillari ishtirokida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining ayrim muhim ijtimoiy masalalar yuzasidan axborotlarini eshitish bo'yicha "Kengash soati" institutini joriy qilish ko'zda tutilgan.

Deputat so'rovlarining ijrosi har chorakda tahlil qilinishi, ushbu jarayonga qat'iy institutsional yondashuv joriy etilishi mahalliy kengashlarning nazorat funksiyasi yangi bosqichga ko'tarilayotganini ko'rsatadi. Bu esa mahalliy vakillik organlarining davlat boshqaruvdagi rolini yanada oshiradi.

Umuman, qonunchilikdagi o'zgarishlar kengashlar hudud muammosini markazga chiqarmasdan, joyida hal qilish imkonini beradi. Bu esa vaqtini tejaydi, mas'uliyatni aniqlashtiradi, natijani tezlashtiradi.

Uch kunlik seminarda mahalliy kengashlar faoliyatini tashkiliy-huquqiy va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning norma ijodkorligi faoliyatini tashkil etish hamda qarorlar qabul qilishda qonuniyligni ta'minlash, mahalliy budget va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini shakllantirish hamda ijrosini nazorat qilish, nazorat-tahlil hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro hamkorlikdagi faoliyati hamda ekspert, yoshlar maslahat guruhlari faoliyati yuzasidan aniq tavsiyalar berildi.

Mahalliy kengashlar endi davlat siyosati natijasini ko'rsatib beruvchi asosiy maydonga aylanmoqda. Endi kengash xalqning haqiqiy "ovozi" bo'ladi.

Azamot TOVBOYEV,
xalq deputatlari Payariq tuman kengashi raisi.

* Tibbiyot muassasalariga tegishli yerlar Sog'liqni saqlash vazirligi ruxsatisiz tuman hokimligi xazinasiga olingan
*Tadbirkorlarga daraxt kesishga yo'l bermayotgan qahramonlar
*Yopilgan shifoxonaning tug'ruq bo'limi "Tashabbusli budjet"da g'olib chiqdi
*Ibn Sino shifoxonasi tiklanishi imkonsizmi?

Urgutlik “Don Kixot”lar

Hazilning o'rni emas, lekin Urgutda jasorati aynan shunday insonlar yashaydigan qishloq bor. Ularning fidoyiliklari hazilakam emas. O'zlari istiqomat qilayotgan qishloq hududidagi 500 ga yaqin archa va boshqa bir necha turdagi daraxtlar ekilgan maydonni qo'riqlab kelishmoqda. Ha, bu so'zni aynan shu ma'noda tushunavering - qo'riqlab kelishyapti.

Tabiatni asrash ham-mamizning burchimiz, deyingiziz mumkin. Lekin bu yerdagi archarzor maydonida ham ko'p gap bor-da. Nafaqat ekologiya, balki aholi salomatligi uchun jon kuydirayotgan bu insonlarning maqsadi aniq. Keling, bu maqsadlar haqida yozishdan avval gap nima haqida borayotganini batafsilroq tushuntirsak.

Urgut tumani Jo'raptepa mahallasida o'tgan asrning 80-yillarida shifoxona qurilgan. Qurilgandayam o'sha paytlardagi kolxoz mablag'i va aholining hashari bilan ko'tarilgan. Abu Ali ibn Sino nomidagi ushbu - 3-son shifoxona qariyb 80 ming aholiga xizmat ko'rsatgan. Unda shifoxona talablariga mos keladigan barcha bo'limlar mavjud bo'lgan va aholining uzog'ini yaqin, og'ir ahvolini yengillashtirgan. Juda yaxshi xizmat ko'rsatgandirki, mana oradan necha yillar o'tsa hamki, aholi ushbu shifoxona qayta ochilishidan umidvor. Ha, to'g'ri o'qdingiz, shifoxona ming afsuslar bo'lsinki, 2014-yildan boshlab, yuridik maqom sifatida tugatilib, Urgut tuman tibbiyot birlashmasi tasarrufiga o'tkazildi. 2016-yilgacha aholiga xizmat ko'rsatib keldi va o'sha yilning may oyida barcha bo'limlar yopilib, "Jozmon" qishloq vrachlik punkti sifatida faoliyat ko'rsatdi. 2017-yildan boshlab esa oilaviy poliklinikalar qatorida aholiga xizmat ko'rsatishi mumkin.

To'rtta qishloqni o'zida mujassam etgan, 6 mingga yaqin aholi istiqomat qiladigan Jo'raptepa mahallasi aholining maqsadi bitta: ushbu shifoxona avvalgiday faoliyat ko'rsatsin. Shifoxona ish boshlasa, faqat bu mahalla emas, atrofdagi o'nlab qishloqlar aholisi ham shu tibbiy muassasa xizmatidan foydalanishi va kamida 50 ming aholiga xizmat ko'rsatishi mumkin.

-Qarovsiz qolgach, manaman degan bino ham nuray boshlaydi, yiqiladi, - deydi Jo'raptepa mahallasi faoli Ab-dulla Omonov. - To'g'risi, binolarni asraymiz, yana shifoxona o'z ishini boshlaydi, deya umidimizni uzganimiz yo'q. Bir paytlar juda so'lim, 500 ga yaqin archa va boshqa manzarali daraxtlar ekilgan 4,6 gektar maydonning yarmi qoldi bugun.

Ha, bundan bir necha yillar ilgari sobiq shifoxonaga tegishli, tuman tibbiyot birlashmasi balansida bo'lgan, foydalanilmayotgan yerlar sifatida uning 2,5 gektar maydoni turli yo'nalishlardagi tadbirkorlarga berib yuborildi. Garchi sog'liqni saqlash muassasalariga tegishli bo'lgan maydonlar Sog'liqni saqlash vazirligi roziligi bilan tasarruf etishga oid hujjatlar mavjud bo'lsa-da yer tuman hokimligi xazinasiga o'tyapti va tadbirkorlarga "nol" qiymatda berilmoqda.

Aholi bu yer uchun jiddiy talashdi: bir nechta sud instansi-



yalariga yugurdi, xullas, yer hokimlik xazinasiga o'tganligi aniq bo'ldi.

Shunday bo'lsa-da hozircha bu yerda hech qanday ishlar boshlanmagan. Jo'raptepa mahallasi mazkur yerda ekilgan daraxtlarning kesilishiga tish-tirnog'i bilan qarshilik qilmoqda. Xullas, hozircha bu yerlarda tadbirkorlik faoliyati olib borilmayapti va daraxtlar ham faollarning jiddiy nazorati bilan joyida turibdi.

Buni qarangki, faollarning sa'y-harakati bilan poliklinika atrofi o'rab olindi. Poliklinika va yana bir bino kapital ta'mirdan chiqarildi. Xo'sh, bu qanday bino, deysizmi? Tug'ruqxona binosi. Ya'ni bir paytlar tug'ruqxona sifatida faoliyat ko'rsatgan, an-chayin xarob ahvolga kelib qolgan bino mahalla ahlining yugur-yuguri bilan 2023-yilda "Tashabbusli budjet"da g'olib deb topildi. Ushbu

loyihada ishtirok etish maqsadiga e'tibor bering: **"Urgut tumanida joylashgan 3-son shifoxonani qayta remont qilish, tug'ruqxona va davolanish bo'limida 10 koya joy tashkil qilish uchun 1 milliard 200 million so'm mablag' ajratish"**.

"Tashabbusli budjet"dagi g'oliblik yiliga e'tibor bering: 2023-yil! Bu paytda shifoxona yopilganiga yetti yil bo'lgan. Bu mablag' yana o'sha, qahramonlarcha o'z maqsadidan qaytmayotgan aholining talabchanligi va tinib-tinchimasligi ortidan ko'lga kiritilgan va bu yerda jiddiy ta'mirlash ishlari boshlangan. Mana, ta'mirlash ishlari amalga oshirilganiga ham uch yil bo'ladi, ozroq pardoz ishlari va tibbiy jihozlar keltirilsa, ish boshlash mumkin. Lekin 1 milliard 200 million so'mga ta'mirlangan bino bugun bo'm-bo'sh. Ammo aholining maqsadi, intilishlarida bu bo'shliqni ilg'amaysiz. Ular bir paytlardagi kabi yam-yashil archalar, zilo suvlar oqib turuvchi katta maydonda, navbatlarsizu, tiqilinchlarsiz tibbiy xizmatdan foydalanilgan yillar kelishidan umidini aslo uzmagan.

Aslida Urgut viloyatdagi eng katta tumanlardan biri. 600 mingga yaqin aholi istiqomat qiladigan hududda yaqinda markazda ming o'rinni markaziy shifoxona qurilishi haqida yaxshi xabarlar bor. Lekin katta hudud uchun bu yetarli? Qolaversa, keyingi yillarda tuman markazlaridagi shifoxonalar ham zamonaviy uskunalar bilan jihozlanib, turli jarrohliklar, zamonaviy diagnostika amalga oshirilmoqda. Bu esa tuman markazlari shifoxonalariga ham qatnovni tobora oshirib borayotir. To'g'rirog'i, bugun tuman shifoxonalari, viloyat markazlaridagi shifoxonalardagi navbatni ko'rib, bemorlarning ikki hissa oshadi.

Shunday sharoitda Jo'raptepa mahallasida, yengilroq xas-taliklarni davolash, aholining og'irini yengil qilishning nahotki iloji bo'lmasa. Qolaversa, necha yillardan buyon shu masala bo'yicha qahramonlarcha harakat qilayotgan aholi ham "Agar shifoxona tiklanadigan bo'lsa biz kamarbastamiz", deb turgan bo'lsa! Bundan ortiq jo'mardlik bormi?!

Gulruh MO'MINOVA.

Prezidentimiz 2025-yil 6-dekabrda qishloq xo'jaligi xodimlari kuni munosabati bilan o'tkazilgan uchrashuvda bergan topshiriqqa muvofiq, ilg'or fermer xo'jaliklari rahbarlari tajriba o'rganish uchun xorijiy davlatlarga yuborilmoqda. Jumladan, O'zbekiston fermerlari kengashi raisi o'rinbosari, fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi ijrochi direktori boshchiligidagi respublikamizdagi 70 dan ortiq ilg'or fermer xo'jaliklari vakillari joriy yilning 26-30-yanvar kunlari Xitoy Xalq Respublikasida bo'ldi.

Safar davomida paxta va g'allachilikda Xitoyda qo'llanilayotgan zamonaviy agrotexnologiyalar, yuqori hosildor va iqlimga mos navlar seleksiyasi, suv va resurslarni tejashga qaratilgan innovatsion yechimlar, shuningdek, qishloq xo'jaligida raqamlashtirish, dron va sensor texnologiyalaridan foydalanish amaliyoti chuqur o'rganildi.

Delegatsiya Pekin shahrida joylashgan Xitoy qishloq xo'jaligi fanlari akademiyasi hamda Pekin qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi fanlari akademiyasida tashkil etilgan maxsus o'quv kurslarida ishtirok etdi. Ushbu o'quv dasturlari doirasida yuqori hosildor, kasalliklarga chidamli navlar, suv tanqisligi sharoitida samarali sug'orish usullari, o'g'itlarni aniq me'yorlarda qo'llash,

FERMERLAR XITOIY TAJRIBASINI O'RGANDI

yer unumdorligini saqlash va oshirish hamda raqamli monitoring tizimlari keng yoritildi. Ayniqsa, Xitoy tajribasida ilmiy tadqiqot natijalarini to'g'ri-ris, 2014-yildan boshlab, yuridik maqom sifatida tugatilib, Urgut tuman tibbiyot birlashmasi tasarrufiga o'tkazildi. 2016-yilgacha aholiga xizmat ko'rsatib keldi va o'sha yilning may oyida barcha bo'limlar yopilib, "Jozmon" qishloq vrachlik punkti sifatida faoliyat ko'rsatdi. 2017-yildan boshlab esa oilaviy poliklinikalar qatorida aholiga xizmat ko'rsatishi mumkin.

Shuningdek, delegatsiya a'zolari Shandun provinsiyasida bo'lib, ushbu hududda qishloq xo'jaligi industrial asosda, yuqori texnologiyalar va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tizimi orqali rivojlanayotgani bilan yaqindan tanishdilar. Zamonaviy traktor va kombaynlar, yuqori unumli yig'im-terim texnikasi, sensor va dronlar orqali ekinlarni monitoring qilish, tomchilatib va mikro-sug'orish tizimlarini joriy etish



amaliyoti chuqur tahlil qilindi. Bu tajriba qishloq xo'jaligida texnika va texnologiyalarni kompleks joriy etish orqali hosildorlikni oshirish bilan birga ishlab chiqarish xarajatlari ni sezilarli darajada qisqartirishi mumkin. O'rganilgan tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirib joriy etish masalalari ham muhokama qilindi. Xususan, resurs tejovchi texnologiyalarni keng qo'llash, qishloq xo'jaligida raqamlashtirishni bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish, ilmiy

muassasalar va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, shuningdek, Shandun provinsiyasida qo'llanilayotgan texnika va uskunalar mahalliy ishlab chiqarish yoki import qilish imkoniyatlarini o'rganish maqsadga muvofiq, deb topildi.

O'zbekiston fermerlari kengashi tomonidan Xitoy Xalq Respublikasining qator davlat va xususiy tashkilotlari bilan hamkorlik shartnomalari imzolandi. Ushbu kelishuvlar qishloq xo'jaligi texnikasi va uskunalarini yetkazib berish, innovatsion agrotexnologiyalarni joriy etish, tajriba almashish va qo'shma loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, kelgusida amaliy natijalar berishi kutilmoqda.

Shuningdek, xizmat safari davomida O'zbekiston fermerlari kengashining Xalqaro Ipak yo'li iqtisodiy alyansiga a'zo bo'lishi hamda mazkur tashkilot prezidiami a'zosi va hamraisi etib saylanishi mamlakatimiz fermerlarining tashqi bozorlarga chiqish, investitsiya va texnologiyalarni jalb etish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Xitoy Xalq Respublikasiga amalga oshirilgan mazkur xizmat safari qishloq xo'jaligida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va fermer xo'jaliklarining bilim hamda amaliy ko'nikmalarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Endi ushbu tajribalarni respublika hududlarida amaliy seminarlar orqali ommalashtirish, pilot loyihalarni joriy etish va qo'shma tashabbuslarni izchil amalga oshirish orqali O'zbekiston qishloq xo'jaligini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish uchun mustahkam zamin yaratildi.

Zokir MAMADALIYEV,
Farhodjon KENJAYEV,
Fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi viloyat bo'yicha vakillari.

Inson umri davomida amalga oshirgan ezgu ishlari bilan ko'pchilikning xotirasida qoladi. Kamtar va olijanob insonlardan biri bo'lgan xalq ta'limi fidoyisi, mehribon ustoz va mohir tashkilotchi **Fatullo Nasrullayev** haqida ham shunday fikrni bildirish mumkin.

Fatullo Nasrullayev 1917-yilning dekabrda Samarqand shahrida tug'ildi. Bolaligidan kitobga mehr qo'ydi. 1934-yilda maktabni a'lo baholarga bitirgach, unga oliy o'quv yurtida tahsil olish nasib qilmadi. Chunki bu vaqtda ota-onasi vafot etganligi sababli 5 nafar ukasini boqib katta qilish uning gardaniga tushgandi. Bir burda non topish ilinjida mashaqqatli ishlarni qilishga majbur bo'ldi. Biroq ilm olishga intilish uni aslo tark etmagan edi.

Yaxshi nom qoldi

Nihoyat, 1938-yilga kelib u ishdan ajralmagan holda O'zbekiston davlat universiteti (hozirgi SamDU)ning fizika-matematika fakultetiga sirdan o'qishga kirdi. Bilimga tashna talaba tez orada universitet professor-o'qituvchilarining e'tiboriga tushadi. Fatullo 1-kursligidayoq hozirgi Toyloq tumanidagi 26-maktabda o'quvchilarga matematika fanidan dars bera boshladi.

Ko'p yillar bolalarga saboq bergan F.Nasrullayev partiya o'qituvchilikdan maktab direktorligigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Uning fidoyi va tashkilotchiligini bilgan tuman rahbarlari Fatulloni tuman partiya qo'mitasining tashviqot - targ'ibot bo'limi mudirligiga tayinlashdi. F.Nasrullayev tashkilotchiligi va

odamiylik xislatlarini namoyon qilib, aholi o'rtasida katta hurmatga sazovor bo'ldi. Oradan bir oz muddat o'tgach viloyat partiya qo'mitasining yo'riqchisi, keyin esa bo'lim mudiri vazifalarida ishladi. Uning sa'y-harakati bilan viloyatdagi bir qator shahar va tumanlarda o'nlab madaniy markazlar va kutubxonalar qurildi. F.Nasrullayev viloyat ijroiya qo'mitasi mas'ul kotibi vazifasida ishlaganida ham tashabbuskorligini namoyish qildi.

Fatullo Nasrullayev ko'p yillar viloyat o'qituvchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti fizika- matematika kabinetini mudiri bo'lib ishladi. Uning tashabbusi bilan institutda bir qator ilmiy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilgan.

Mehribon va kamtarin bu inson bir



qancha orden, medal va ko'krak nishonlari hamda faxriy yoriqlar bilan taqdirlangan edi. Shuningdek, ustoz bir necha bor el ishonchini qozonib, xalq deputatlari Toyloq tuman kengashi deputati etib saylangan.

Xotira

Fatullo Nasrullayev oilasida mehribon ota, bilimdon o'qituvchi ham edi. Turmush o'rtog'i Matluba aya bilan bir etak farzandlarni tarbiyalab, o'qitib, elga qo'shgandi.

2017-yilda o'zi yashab o'tgan Samarqand shahridagi Osim Ismoilii mahallasida F.Nasrullayevning 100 yillik xotira kechasi o'tkazilgan. Kechada uning yaqin shogirdlari, qarindosh-urug'lari ishtirok etib, amalga oshirgan ishlarini yod etgandi. Shogirdlari va farzandlari tomonidan domlanning hayot yo'li bitilgan kitob-risola nashr etilgan. Halol mehnat qilib, o'zidan yaxshi amallar qoldirgan Fatullo Nasrullayev 1973-yilda bu olamni tark etgan edi.

Bugungi kunda uning ishlarini shogirdlari va farzandlari davom ettirmoqda.

Nafisa NASRULLAYEVA,
Samarqand davlat chet tillar
instituti professori.
filologiya fanlari doktori.

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI QUYIDAGI KAFEDRALAR BO'YICHA BO'SH LAVOZIMLARGA

TANLOV E'LON QILADI

KAFEDRA MUDIRI LAVOZIMIGA:

- Umumiy fizika kafedras (fan nomzodi, PhD, dotsent).
- Nazariy fizika va kvant elektronikasi kafedras (fan nomzodi, PhD, dotsent).
- Sotsiologiya kafedras (fan doktori, dotsent).

KAFEDRA PROFESSORI LAVOZIMIGA:

- Zoologiya kafedras – 1,0 stavka.
- Optika va spektroskopiya kafedras 1,0 stavka.
- Nazariy fizika va kvant elektronikasi kafedras 2,0 stavka.
- Yadro fizikasi va astronomiya kafedras 1,0 stavka.
- Dasturiy injiniring kafedras 1,0 stavka.
- Falsafa kafedras 1,0 stavka.
- O'zbek tili va adabiyoti kafedras 1,0 stavka.
- Ingliz tili, tilshunosligi va adabiyoti kafedras 2,0 stavka.

KAFEDRA DOTSENTI LAVOZIMIGA:

- Zoologiya kafedras 1,0 stavka.
- Organik sintez va bioorganik kimyo kafedras 0,50 stavka.
- Fizikaviy va kolloid kimyo kafedras 3,0 stavka.
- Noorganik kimyo va materialshunoslik kafedras 2,0 stavka.
- Polimerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya kafedras 2,0 stavka.
- Umumiy fizika kafedras 2,0 stavka.
- Qattiq jismlar fizikasi kafedras 1,0 stavka.
- Meva-sabzavotchilik va uzumchilik kafedras 1,0 stavka.
- Tuproqshunoslik va agrotexnologiya kafedras 1,0 stavka.
- Matematik analiz kafedras 1,0 stavka.
- Boshqaruv nazariyasi va axborot xavfsizligi kafedras 0,5 stavka.
- Dasturiy injiniring kafedras 1,0 stavka.
- Geografiya va tabiiy resurslar kafedras 1,0 stavka.
- Ekologiya va hayotiy faoliyat xavfsizligi kafedras 1,0 stavka.

- O'zbekiston tarixi kafedras 1,0 stavka.
- Arxeologiya kafedras 1,0 stavka.
- Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedras 2,0 stavka.
- Ijtimoiy ish kafedras 1,0 stavka.
- Falsafa kafedras 6 stavka.
- Mumtoz adabiyot tarixi kafedras 3,0 stavka.
- O'zbek tili va adabiyoti kafedras 1,0 stavka.
- O'zbek tilshunosligi kafedras 4,0 stavka.
- Fakultetlararo rus tili kafedras 1,0 stavka.
- Rus va umumiy tilshunoslik kafedras 1,0 stavka.

KAFEDRA KATTA O'QITUVCHISI LAVOZIMIGA:

- Sun'iy intellekt va axborot tizimlari kafedras 1,0 stavka.
- Arxeologiya kafedras 1,0 stavka.
- Fakultetlararo rus tili kafedras 3,0 stavka.
- Xorijiy tillar kafedras 2,0 stavka.

KAFEDRA ASSISTENTI LAVOZIMIGA:

- Zoologiya kafedras 1,0 stavka.
- Botanika kafedras 1,0 stavka.
- Biotexnologiya kafedras 4,0 stavka.
- Odam va hayvonlar fiziologiyasi va biokimyo kafedras 2,0 stavka.
- Fizikaviy va kolloid kimyo kafedras 1,0 stavka.
- Noorganik kimyo va materialshunoslik kafedras 1,0 stavka.
- Umumiy fizika kafedras 1,0 stavka.
- Nazariy va muhandislik mexanikasi kafedras 1,0 stavka.
- Yadro fizikasi va astronomiya kafedras 1,0 stavka.
- Agrokimyo va o'simliklarni himoya qilish kafedras 1,0 stavka.
- Meva-sabzavotchilik va uzumchilik kafedras 1,0 stavka.
- Tuproqshunoslik va agrotexnologiya kafedras 1,0 stavka.
- Algebra va geometriya kafedras 1,0 stavka.



- Matematik fizika va funksional analiz kafedras 1,0 stavka.
- Ehtimollar nazariyasi va amaliy matematika kafedras 1,0 stavka.
- Sun'iy intellekt va axborot tizimlari kafedras 1,0 stavka.
- Dasturiy injiniring kafedras 1,0 stavka.
- Geografiya va tabiiy resurslar kafedras 1,0 stavka.
- Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedras 1,0 stavka.
- Arxeologiya kafedras 1,0 stavka.
- Amaliy psixologiya kafedras 2,0 stavka.
- Pedagogika va umumiy psixologiya kafedras 3,0 stavka.
- Sotsiologiya kafedras 3,0 stavka.
- Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedras 1,0 stavka.
- Fakultetlararo rus tili kafedras 1,0 stavka.
- Ingliz tili, tilshunosligi va adabiyoti kafedras 1,0 stavka.
- Xorijiy tillar kafedras 3,0 stavka.
- Davlat huquqiy fanlar kafedras 1,0 stavka.
- Jinoyat huquqiy fanlar kafedras 1,0 stavka.

TALABGORLAR TANLOVDA QATNASHISH UCHUN QUYIDAGI HUJJATLARNI TAQDIM ETISHLARI LOZIM:

- Rektor nomiga ariza.
- Xodimlarni hisobga olish bo'yicha so'rovnoma.
- Oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi haqidagi diplomlari, ilmiy unvoni haqidagi attestati nusxalari.
- Ilmiy ishlarining tasdiqlangan ro'yxati.
- Malaka oshirganligi to'g'risidagi sertifikat.

Hujjatlar gazetada e'lon chop etilgan kundan boshlab, bir oy ichida qabul qilinadi.

MANZIL: Samarqand shahri Universitet xiyoboni, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining to'qqiz qavatli binosi, 312-xona. Universitet Kengashi kotibi. Murojaat uchun telefon: +99866-240-38-42.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Buriyev Kayumga (1992-yil 31-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Ismatova Subxiyaga (2010-yil 21-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Kuzyev Murad Begmuradovichga (2024-yil 8-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qo'shatov Akbar

Rustamovich notarial idorasida marhum Aliyev Farxod Xamrakulovichga (2012-yil 3-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 90-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Sharipova Zamira Kuchkarovnaga (2021-yil 14-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Pardayev Shakosimga (2024-yil 24-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Kudratov Murodkulga (2017-yil 4-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda.

Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Ashikov Fevzi Osmanovichga (2007-yil 25-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Rozikov Alisher Abdulkolichovichga (2022-yil 10-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani O'rtashiq mahallasi.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Baxriyev Murodin Nuritdinovichga (2025-yil 1-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat

SHIFOKORLARGA RAHMAT!

Meni ancha vaqtdan buyon oyog va bel og'rig'i qiynardi. Uy sharoitida dori darmonlar olib yurdim, ammo og'riq kuchayishda davom etdi. Hatto o'ng oyog'imni bosolmay qoldim. Ko'pchilikning tavsiyasi bilan viloyat nogironlar reabilitatsiya markaziga keldim. Nevrolog-shifokor Daler Ubaydov meni qabul qilib, barcha tahlil natijalarini o'rganib chiqdi. O'sha kunning o'zida dori darmonlar va fiziodavolashlarni boshlashdi. Qisqa muddatda sog'ayib, og'riqlardan xalos bo'ldim.

Bosh shifokor Akrom Berdiyev, shifokor Daler Ubaydov, hamshiralar Dilrabo Rahimova, Zarnigor Karimova va fizioterapiya xodimi Charos Nizomizova va boshqa xodimlarga tibbiy yordamlari uchun minnatdorlik bildiraman. Barchangizga sihat va shalomat, oilaviy baxt, el salomatligi yo'lida amalga oshirayotgan ishlaringizda muvaffaqiyat tilayman. Ilohim qo'lingiz dard ko'rmasin, aziz shifokorlar.

Xosiyat SHODIYOROVA,
Bulung'ur tumani.

etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Bulung'ur tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Salimov Otabek Mamayusupovich notarial idorasida marhum Babakulova Mamaxalga (1999-yil 17-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Salimov Otabek Mamayusupovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Bulung'ur shahri Mustaqillik maydoni.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nurqosimov Ramziddin Sayfiddinovich notarial idorasida

marhum Axmedov Gayrat Nasimovichga (2005-yil 13-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nurqosimov Ramziddin Sayfiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayev Hamid Azimurodovich notarial idorasida marhum Irgasheva Muxabbatga (1995-yil 13-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayev Hamid Azimurodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-uy.

► Катагон қурбонлари

Ғурбатда кечган йигирма йил

Бу унинг НКВД ходимлари томонидан иккинчи марта ҳибсга олиниши эди. Шу сабабли ўзини унчалик йўқотмади. Аксинча, аввало хотини Ирина Станиславовнани тинлантиришга уринди: “Энди мендан кўра сенга қийин бўлади. Ўзингни маҳкам тут, болаларнинг, онамнинг таянчи ёлғиз ўзинг бўлиб қоляпсан”.

Бу гапларни менга кейинчалик онасидан эшитган, отаси Раҳим Шокирбеков 1941 йил 2 январда ҳибсга олинган пайтда ҳали бир ёшга ҳам тўлмаган қизи Элианора Раҳимовна Шокирбекова айтиб берган эди. Элианора Раҳимовна СамДУ тузилмасидаги Катагон қурбонлари хотираси музейига ёши саксондан ошганлигига қарамай тез-тез келиб турар, отасига алоқадор анчагина ҳужжат ва суратларни музей фондига топширганди. Элианора опа 2024 йил март ойида, 84 ёшида вафот этди.

Ўзбекистон ССР НКВДси давлат хавфсизлик бошқармаси 2-бўлими 1-бўлинмасининг катта тезкор вакили Бардаснинг Р.Шокирбековни жиноий жавобгарликка тортиш ҳақида чиқарган қароридан: “1930 йилда Р.Шокирбеков ОГПУнинг Ўрта Осиёдаги мухтор вакили томонидан ЎзССР Маориф халқ комиссарлигида мавжуд бўлган аксилинқилобий-миллатчилик ташкилотининг фаол иштирокчиси сифатида ҳибсга олинган ва 1933 йилда ОГПУ коллегияси томонидан 5 йилга озодликдан маҳрум этилган” эди. Қамок муддатини 1935 йилда ўтаб бўлиб, уйга қайтган.

1937 йилда фош этилган ва А.Икромов, Ф.Хўжаев раҳбарлик қилган ҳамда Ўзбекистон ҳудудида фаолият юритган кўп тармоқли “Миллий истиқлол” ташкилоти бўйича олиб борилган тергов давомида Р.Шокирбеков ушбу жиноятчилар гуруҳи мавжудлигини билганлиги аниқланди. Номи келтирилган ташкилот кўролли кўзғолон ҳамда ВКП(б), совет ҳукумати раҳбарларига нисбатан террор уюштириш натижасида Ўзбекистонни СССРдан ажратиб олишни мақсад қилиб қўйган...

Шокирбеков шунингдек, бу аксилинқилобий-миллатчилик ташкилотини фош этган Обид Саидовга нисбатан террорни тайёрлаш ва амалга оширишдан хабардор бўлган... У ВКП(б) ва совет ҳукумати томонидан халқ таълими ҳамда адабиёт соҳасида олиб борилаётган тадбирларга қарши кенг миқёсдаги бузғунчилик ишларига киришган. Бу ҳолатлар унинг 1930 йилда ҳибсга олиниши вақтида терговдан яширилган.

Бундан ташқари, уни 1930 йилда Маориф халқ комиссарлигида аксилинқилобий-миллатчилар гуруҳи борлигини била туриб улар ҳақида тегишли ташкилотларга маълумот етказмаганликда ҳам айбланди. Бу гуруҳда Боту, Боси Қориев (Олтой), Рамзи, Носир Саидов, Усмон Салимий, Собир Қодиров, Зоҳидов, Орифонов, Зуфар Муҳаммадиев, Лутфулла Алавий, Алимов бўлган, дейилади ҳужжатларда.

Аслида Раҳим Шокирбеков шахсига НКВД томонидан бунчалик алоҳида эътибор қаратилишининг сабаби нимада эди? Нега уни 1930-1935 йилларда “Наркомпрос иши” бўйича 5 йил қамоққа тикқанларига қарамай 1941 йил 2 январда яна ҳибсга олишди? Бунинг сабабини унинг таржимаи ҳолидан излаш керак, деган фикрдаман.

Раҳим Шокирбеков 1901 йилда (баъзи ҳужжатларда 1899 йил деб кўрсатилган) Тошкент шаҳрида, ўзига тўқ оилада таваллуд топди. Отаси Шокирбек Аҳмадбековнинг Тошкент ва Қўқон шаҳарларида савдо дўконлари бўлган. Раҳим саккиз ёшга тўлганда отаси оиласидан ажрашиб, Қўқон шаҳрига кўчиб кетди. У онасининг қарамоғида қолади. Тошкентдаги мактабларда ўқиб, савод чиқарди. Лекин отаси 1913 йилда ҳаж сафарига отланиб, ўли Раҳимни ҳам ўзи билан олиб кетади. Ўша пайтлари ҳажга борувчилар Туркияга бориб, султоннинг розилигини олиши керак бўлган. Отаси уни Истамбулдаги “Истамбул-Султония” коллежига ўқишга жойлаштириб, ўзи Сидикмат ҳожи билан Макка ҳамда Мадинага йўл олади. Ёш Раҳим ушбу коллежда тўрт йил таҳсил олди. Коллежда турк, француз, форс тилларини ўзлаштирди. Лекин 1917 йилда отаси Қўқонда вафот этгач, доимо олиб турган пулдан маҳрум бўлиб, моддий аҳволи оғирлашади. Шундан сўнг, 1918 йил ўрталаригача Истамбулдаги бир дўкондорга ёрдамчи бўлиб ишлайди. Ватанда бўлаётган воқеаларни эшитиб, юртга қайтишни istайди. Аввал Туркияда яшаётган кавказликлар билан Озарбайжоннинг Ганжа шаҳрига келади. Маблағ топиш учун бир мактабда ўқитувчилик қилади.

1919 йилнинг ёзида Боку шаҳрига кўчиб ўтади. Бу ерда у Туркиядан келган одамлар билан танишиб, улар ташкил қилган “Ҳиммат” партиясига қиради. Бу партия чоп этаётган “Ишчи ва деҳқон” газетаси фаолларидан бирига айланади. 1920 йил бошида “Ҳиммат” партияси намояндаларидан бири Ҳусайин Ҳилмий билан Тошкентга етиб келади. Бу партия ўзини ишчи-деҳқонлар манфаатларини ҳимоя этувчи, деб эълон қилгани учун коммунистик партияга яқин эди. Ўша пайтлар Москва-нинг кўрсатмаси би-

лан Тошкентда “Шарқда байналминал тарғибот” бўлими очилади. Бўлимни Туркияда ҳам инқилобни амалга ошириш ниятида юрганлардан Мустафо Субҳий исмли шахс бошқарарди. Раҳим Шокирбеков ушбу партия ижроия бюроси ва “Новый мир” газетаси таҳрир хайъати аъзоси этиб тайинланган. Бу ерда у бир йил ишлайди.



1921 йилда уни Қўқонга, милиция бўлими бошлиғи ўринбосари вазифасига йўллашади. Шунингдек, Андижонда ҳам айрим вазифаларни бажаради. 1922 йилда Қўқон ер-сўв бўлими бошлиғи ўринбосари, район партия кўмитаси масъул ходими вазифаларида ишлайди. Кейинчалик Фарғона вилояти ер-сўв бўлимида ва Қўшчилар уюشمаси вилоят бўлими раиси ўринбосари лавозимидда меҳнат қилади.

1923 йилда уни Тошкентга чақириб олишади. Тошкентнинг Эски шаҳар тумани ер тузиш, халқ маорифи бўлимида бошлиқ ўринбосари, бошлиқ вазифаларида ишлайди. 1924-1925 йилларда Коммунистик партиянинг Эски шаҳар тумани кўмитасида бўлим мудири ўринбосари, бўлим бошлиғи эди.

1941 йил 18 февралда ЎзССР НКВДсининг давлат хавфсизлик бошқармаси катта тезкор вакили Бардас олиб борган сўроқ далолатномасидан:

- Шундан кейинги йилларда қарларда ишлагандимиз?
- 1925-1926 йилларда Ўзбекистон Компартияси Марказий Кўмитасида матбуот бўлими юрикчиси, шу билан бир вақтда Самарқандда чоп этилаётган “Зарafshon” газетасининг масъул муҳаррири вазифаларида хизмат қилдим. 1927 йилда Карманага, Зарafshon округ маориф бўлими мудири вазифасига тайинландим. У ерда 1928 йилнинг сўнги кунларигача меҳнат қилдим. Ўша пайтлари бир вақтнинг ўзида Ўзбекистон Компартияси Каттақўрғон тумани кўмитаси котиби ҳам эдим. 1929 йилдан мени Зарafshon округ партия кўмитаси маданият ва тарғибот бўлими мудири этиб белгилашди. 1930 йил бошидан Самарқандда Маориф халқ комиссарлигига қароқандлаш бўлимида, маъмурий-хўжалик бўлимида бошлиқ, охириги пайтлар эса Маориф халқ комиссари вазифасини вақтинча бажардим. 1930 йилнинг якунларида НКВД томонидан “Наркомпрос иши” бўйича ҳибсга олинганимда Ўзбекистон Компартияси Бекобод тумани кўмитасининг котиби бўлиб ишлаётгандим.

Музаффар МУҚИМОВ,
СамДУ тузилмасидаги Катагон қурбонлари хотираси вилоят музейи директори.



Gazeta uchun tugʻilgan odam

Viloyat Matbuot uyida Ahmadjon Muxtorovning “Umring oltin tarozisi” kitobi taqdimoti oʻtkazildi

Ahmadjon Muxtorov nomi yurtimiz ijod ahliga, ayniqsa, jurnalistlarga yaxshi tanish. Bu inson qariyb oʻttiz yil Samarqand viloyatining bosh nashri – “Zarafshon” (avvalgi “Lenin yoʻli”) gazetasida faoliyat koʻrsatib, 13 yil bosh muharrirlik qilgan. Soʻngra “Qishloq hayoti” gazetasini boshqargan, 1991 yilda “Xalq soʻzi” gazetasi tashabbuskorlaridan biri va uning birinchi muharriri boʻlgan. Jamoat arbobi, deputat sifatida davlat va jamiyat hayotidagi muhim masalalar yuzasidan tashabbuslarni ilgari surgan, yurtimizda soʻz va matbuot erkinligini taʼminlashga hissa qoʻshgan.

Hayot boʻlganida Ahmadjon Muxtorov shu kunlarda 90 yoshga toʻlardi. Shu munosabat bilan “Zarafshon” gazetasi jamoasi tomonidan tayyorlangan mazkur kitobga ijodkorning ushbu gazetada chop etilgan publitsistik maqola va ocherklari, turli tillardan qilgan badiiy tarjimalari kiritilgan.

– Ahmadjon aka gazetaga aql qayrogʻi, tafakkur chirogʻi, ijod qaymogʻi, yurak qiyogʻi, deb taʼrif berardi va bularning barchasi u kishining ijodida, xarakterida yaqqol aks etardi, – deydi “Zarafshon” gazetasi bosh muharriri Farmon Toshev. – Shuning uchun ham ustozni yaqindan bilganlar, atrofidagi kishilar uni “gazeta uchun tugʻilgan odam” derdi. Ahmadjon aka fikrlarini pishitib, katta-katta maqolalarni bir oʻtirishda yozardi. Aniqrogʻi, harf teruvchilar xonasiga kelardiyu yarim soat – bir soatda maqolani aytib turib, yozdirardi. Sarlavha va ruknlar topishda uning zakovatiga qoyil qolardik. Bugungacha gazetamizda mavjud “Mulohaza uchun mavzu” degan ruknni ham aynan Ahmadjon aka topgandi. Avvalo, oʻzi ushbu ruknda davr uchun dolzarb boʻlib turgan mavzularda maqolalar yozib, buni boshqalardan ham talab qilardi.

– Ahmadjon Muxtorov chinakam maʼrifatparvar, ziyoli inson edi, – deydi Samarqand davlat iqtisodiyot va servis instituti professori Erkin Xoʻjayev. – U kishi oʻtgan asrning yetmishinchi-saksoninchi yillarida Samarqandda jadidlar hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyatini oʻrganib, bu haqda gazetada turkum maqolalar yozgandi. Xususan, bir paytlar xalq dushmani deb qoralangan Saidrizo Alizodaning ilm-maʼrifat, jurnalistika rivojiga qoʻshgan beqiyos xizmatlarini oʻrganib, bu haqda gazetada katta maqola bergandi. Sobiq ittifoq deputati boʻlganida esa, kerak boʻlsa, ittifoq rahbarlari oldiga kirib, yurtimiz manfaatli uchun muhim masalalarni koʻndalang qoʻyganiga guvoh boʻlganmiz.

Taqdimotda ijodkorning shogirdlari va oila aʼzolari ishtirok etib, Ahmadjon Muxtorov bilan bogʻliq xotiralarni yodga oldilar.

Nigina SAʼDINOVA.

Samarqand muzeylarida TOSH DAVRIGA OID 7,5 mingdan ziyod ashyo saqlanadi

«Samarqand» davlat muzey-qoʻriqxonasi arxeologik ashyolarining umumiy soni 65 mingdan ortiqni tashkil etadi. Ushbu ashyolar Oʻzbekiston tarixining deyarli barcha davrlarini qamrab olgan boʻlib, muzey-qoʻriqxona tarkibidagi eng katta va eng qadimiy muzey Oʻzbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyasi hisoblanadi.

Unda 48 mingdan ortiq arxeologik ashyo saqlanadi. Muzey-qoʻriqxona tarkibidagi ikkinchi yirik arxeologik kolleksiya viloyat oʻlkashunoslik muzeyiga tegishli boʻlib, bu yerda Samarqand va unga tutash hududlar tarixini aks ettiruvchi 13 mingdan ortiq arxeologik ashyo jamlangan. Samarqandning qadimgi oʻrni — Afrosiyob shaharchasidan topilgan 2 mingdan ortiq arxeologik ashyo Samarqand shahar tarixi — Afrosiyob muzeyida saqlanadi va namoyish etiladi. Shuningdek, muzey-qoʻriqxona tarkibiga kiruvchi Kattaqoʻrgʻon shahar tarixi muzeyida 391 dona, Ishtixon tumani tarixi muzeyida 123 dona, Paxtach tumani tarixi muzeyida esa 2218 dona arxeologik ashyolar saqlanib, ekspozitsiyalarda namoyish etilmoqda. Arxeologik topilmalarning muayyan qismini tosh davriga oid ashyolar tashkil etadi. Ushbu davrga mansub ashyolar asosan Oʻzbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi hamda viloyat oʻlkashunoslik muzeyida jamlangan. Xususan, Oʻzbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyida miloddan avvalgi 100–40 ming yilliklarga oid 50 dan ortiq arxeologik ashyolar saqlanib, ular Narpay tumani hududida joylashgan Zirabuloq va Qoʻtirbuloq manzilgohlari, shuningdek, Toshkent viloyatidagi Obirahmat manzilgohidan topilgan boʻlib, mazkur topilmalar taxminan 60 ming yillar avvalgi davrga tegishlidir. Viloyat oʻlkashunoslik muzeyida esa Samarqand arxeologiya instituti olimlari N.Tashkenbayev va B.Sayfulla-

yevar tomonidan muzeyga topshirilgan 160 ga yaqin oʻrta paleolit davriga oid ashyolar saqlanadi.

Shu bilan birga, Oʻzbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyida yuqori paleolit davriga, yaʼni miloddan avvalgi 40–12 ming yilliklarga oid 140 dan ortiq arxeologik ashyolar mavjud boʻlib, ular Samarqand shahar yuqori paleolit manzilgohidan, shuningdek, Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Toshkent viloyati va Turkmaniston hududlaridan yigʻilgan. Bu davrga oid 60 ga yaqin arxeologik ashyolar viloyat oʻlkashunoslik muzeyida ham saqlanib, ular Samarqand yuqori paleolit manzilgohidan Samarqand davlat universiteti olimlari D.Lev va M.Joʻraqulovlar tomonidan topib oʻrganilgan. Oʻzbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyida neolit davriga, yaʼni miloddan avvalgi 6–4 ming yilliklarga oid arxeologik ashyolar soni nisbatan koʻp boʻlib, ularning umumiy miqdori 7 mingdan oshadi. Bu ashyolar Qoraqalpogʻiston, Samarqand, Buxoro, Fargʻona, Navoiy viloyatlari hamda Tojikiston hududlaridan aniqlangan.

Viloyat oʻlkashunoslik muzeyida saqlanayotgan neolit davriga oid arxeologik ashyolar soni esa 300 ga yaqin boʻlib, ular Samarqand davlat universiteti olimi N.Xolmatov tomonidan Nurobod tumanining Sagʻon yodgorligidan topib oʻrganilgan va muzeyga topshirilgan. Umuman, bugungi kunda Samarqand muzeylarida saqlanayotgan tosh davriga oid arxeologik ashyolarning umumiy soni 7 ming 500 dan ortiqni tashkil etadi.

Gulchiroy MARDIYEVA.



Mazkur maqolaning toʻliq matnini ushbu QR-kod orqali oʻqishingiz mumkin.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta Oʻzbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan roʻyxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 794 nusxada chop etildi. Buyurtma 72. Hajmi 2 bosma tabqa, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA EʼLONLAR: (66) 233-91-56

BOʻLIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulugʻ Tursunov koʻchasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter boʻlimida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen koʻchasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

Gʻ.HASANOV.

Navbatchi:

T.SIDDIQOV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga oʻtish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda